

UDC (UO‘K, YDK) 82.01.09

INGLIZ ADABIYOTIDA ANIMALISTIKA JANRI GENEZISI VA UNING TADRIJIY TAKOMILI²⁵

Yuldosheva Zulfizar Sobir qizi

Mustaqil izlanuvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

zulfizaryuldasheva56@gmail.com

[Orcid ID: 0009-0008-7125-3327](https://orcid.org/0009-0008-7125-3327)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola animalistika janri tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, badiiy adabiyotda hayvonlar obrazlari, insonlar va hayvonlar o‘rtasidagi munosabatlarni adabiyotda ramziy aks etishi hamda tarixiy asoslariga bag‘ishlangan. Maqolada hayvonlar tasviriga asoslangan animalistika janrining badiiy adabiyotda faqat tabiiy dunyoning bir qismi sifatida emas, balki insoniy muammolarni aks ettiruvchi, ijtimoiy tanqid uchun qulay vosita sifatida qaralishiga ilmiy-nazariy munosabat bildirilgan. Animalistika janrida ijod qilgan ingliz adiblari Jonatan Svift, Villiam Rosko, Charlz Dikkens, Levis Keroll, E.Lirr, Charles H.Karpenter, Maykl Morpurgolarning animalistika janrida yozgan asarlarini o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish maqsad qilingan. Badiiy adabiyotda hayvonlar obrazining insoniy xarakterlari va ijtimoiy muammolarni aks ettirishdagi roli, shuningdek, hayvonlarning simbolik ma’nolarini o‘rganish masalalari ham yoritilgan. Shuningdek maqolada ingliz adabiyotida hayvonlar tasvirining kengayishi va uning o‘ziga xos uslublari tahlili qiyosiy, madaniy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Ingliz adabiyotida animalistika janrining elementlari, hayvonlar va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tasvirlash va uning tadrijiy takomilini tadqiq qilish, hamda janrning ilmiy-nazariy mohiyatini o‘rganishdan iborat.

KALIT SO‘ZLAR

Animalistika, folklore, genetika, ramz, timsol, majoziylik, antropomorfizm, psixologik metod, antropologik uslub.

Received: January 3, 2025

Accepted: March 17, 2024

Available online: May 2, 2025

²⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Yuldosheva Z. Ingliz adabiyotida animalistika janri genezisi va uning tadrijiy takomili.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6). — B. 318-330.

ГЕНЕЗИС И ЭВОЛЮЦИЯ АНИМАЛИСТИЧЕСКОГО ЖАНРА В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Юлдошева Зулфизар Собир кизи

Независимый исследователь

Узбекский государственный

университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

zulfizaryuldasheva56@gmail.com

Orcid ID: [0009-0008-7125-3327](https://orcid.org/0009-0008-7125-3327)

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена истории жанра анималистики, этапам его развития, образам животных в художественной литературе, их символическим значениям, отношениям между людьми и животными, роли анималистики в литературе, а также историческим основам этого жанра. В статье автором высказывается научно-теоретическое мнение о том, что образы животных в жанре анималистики в художественной литературе воспринимаются не только как часть естественного мира, но и как средство отражения человеческих проблем и удобный инструмент для социальной критики. В статье также анализируются особенности произведений таких английских писателей, как Джонатан Свифт, Уильям Роско, Чарльз Диккенс, Льюис Кэрролл, Эдвард Лирр, Герберт Карпентер и Майкл Морпургол, написанные в жанре анималистики. Рассматривается роль образа животных в отражении человеческих характеров и социальных проблем, а также символическое значение данного вида образов. Для исследования расширения функций образов животных в английской литературе и их стилистических особенностей в статье используются сравнительный и культурно-исторический методы анализа. В работе с научно-теоретической точки зрения произведено описание жанровых признаков анималистики в английской литературе, раскрыта взаимосвязь между животными и людьми, а также прослежено постепенное развитие этого жанра.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Анимализм, фольклор, генетика, символ, образ, метафора, антропоморфизм, психологический метод, антропологический стиль

THE GENESIS AND EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF THE ANIMALISTIC GENRE IN ENGLISH LITERATURE

Yuldosheva Zulfizar Sobir qizi

Independent researcher,

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

zulfizaryuldasheva56@gmail.com

Orcid ID: [0009-0008-7125-3327](https://orcid.org/0009-0008-7125-3327)

ABSTRACT

This article is devoted to the history and development of the animalistic genre, including its representation of animal imagery in literary works, the complex relationship between humans and animals, its symbolic significance, and the genre's role in literature and its historical origins. The author posits a scientific and theoretical perspective regarding the animalistic genre in literature, which portrays animals not only as a component of the natural world but also as a vehicle for exploring human concerns and a useful tool for social commentary. The article examines the literary works of English authors who wrote in the animalistic genre, including Jonathan Swift, William Roscoe, Charles Dickens, Lewis Carroll, Edward Lear, Herbert Carpenter, and Michael Morpurgo. The focus is on identifying the unique characteristics of their works in this genre. It also highlights the role of animal images in reflected human character traits and social problems, as well as the symbolic meaning of animals. In addition, the article employs comparative and cultural-historical analysis methods to investigate the proliferation of animal depictions in English literature and their distinct stylistic characteristics. The examination of the elements of the animalistic genre in English literature, the representation of interactions between animals and humans, its gradual evolution and the continued representation of this genre are also examined from a scientific-theoretical point of view.

KEY WORDS

Animalism, folklore, symbol, image, metaphor, anthropomorphism, psychological method, anthropological style.

KIRISH

Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida animalistika janri uning genezisi, badiiy takomili, ramziy ma'nolari adabiyotdagi tutgan o'rni hamda tarixiy asoslari doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. Animalizm insonning tabiatga bo'lgan munosabati, hayvonlar va ularning atrofdagi dunyodagi o'rni, axloqiy va ekologik masalalar bilan bog'liq. Antik davr adabiyotidan boshlab, g'oyani, maqsadni ifodalash uchun ramz va timsollardan foydalanganliklari ilmiy manba'alardan ma'lum. Animalistik adabiyot uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Uning ildizlari uzoq qadim zamonlarga – yer yuzida hayot paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Inson va hayvonlarni uzoq evolutsion taraqqiyot birlashtirib turadi. Bu taraqqiyot davomida hayvonlar insonlarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yaqindan yordam berdi. Aynan shu sababli ham insoniyat hayvonlarga tahsinlar o'qiydi, ularni olqishlaydi, ularga ta'zim qiladi, haykaltaroshlikda, arxitektura, tasviriy san'atda va, nihoyat, badiiy adabiyotda o'zi yaratgan eng sara asarlarni ularga bag'ishlaydi.

Adabiyotshunoslikda animalistika janrida yaratilgan asarlarni badiiy xususiyatlarini o'rganish, majoziy tasvir, majoziylikni hosil qiluvchi vositalar, ramz, qush, va hayvonlar tasviri, tabiat voqea hodisalari, ramziy-majoziy talqin bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, jahon adabiyotshunosligida animalistik adabiyot bilan bog'liq bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Michigan universitetida "Insonlar va hayvonlar: hindular tafakkuri va Amerika talqini" nomli tadqiqot amalga oshirilgan bo'lsa (Vigil K., 2011), Kanadaning Ottava universiteti olimasi "Badiiy adabiyotda jonivorlar hayoti" mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qildi (New H., 1982). Badiiy adabiyotda ham respublikamizda "Inglizabon g'arb adabiyoti va o'zbek adabiyotida animalistika janri xususiyatlari" nomli tadqiqotda ikki mamlakat adabiyotini qiyoslash orqali animalistika janrining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan (Ashurova D., 2020).

Shu doirada animalistika janri genezisiga nazar solish, shu ma'noda animalizmning ramziy timsoliy ma'nolarini, badiiy mohiyatini ilg'or adabiy usullarni tatbiq etgan holda ochib berish jahon adabiyotshunosligida dolzarb

masalalardandir. Badiiy adabiyotshunoslikda o'z o'rniga ega bo'lgan animalistika janri bugungi kunga kelib o'zining kitobxonlariga ega.

ASOSIY QISM

Animalistika — bu hayvonlar, ularning tabiati, ongini, hissiyotlarini, hayvonlar va odamlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga bag'ishlangan adabiy janr hisoblanadi. Animalistika janrining genezisi, avvalo, xalq og'zaki adabiyotiga borib taqaladi. Hayvonlar haqidagi adabiyotning asosiy badiiy tamoyillari xalqlarning folklorida (og'zaki ijodida) aniqlangan bo'lsa, umumiy animalistik motivlarni har bir xalq va har bir milliy adabiyot vakillari o'zlaricha ishlab chiqqanlar. Xalq folklori — milliy madaniyatning bir qismi sifatida, insonlarning tabiatga, hayvonlarga va o'zaro munosabatlariga bo'lgan qarashlarini ifodalaydi. Ko'plab ertaklar, rivoyatlar, afsonalar va xalq she'riyatida hayvonlar odatda insonlar bilan bog'lanadi.

Bunday asarlar hayvonlarni nafaqat tabiiy dunyoning bir qismi, balki odamlarning hissiyotlarini va ijtimoiy muammolarini ifodalovchi vosita sifatida ishlatadi.

Hayvonlar ko'pincha **simvolik** ma'noga ega bo'lishi mumkin: ular ba'zan kuch, erkinlik, yoki befarqlikni ifodalasa, ba'zan esa yovuzlik, axloqsizlikni tasvirlash uchun ishlatiladi. Animalistika janrining genezisi shu tarzda xalq folkloridagi **hayvonlarning antropomorfizmi** (grekcha anthropos-inson va morpheo-shakl, ko'rinish yoki *shaxslashtirish* deb [odam](#) bo'lmagan mavjudot, hodisa yoki mavhum narsalarni odamsimon yoki odam xulqiga ega qilib tasvirlashga aytiladi). (Harper D., 1858.) va **simvolizm** orqali shakllanadi.

Xalq ertaklarida hayvonlar tez-tez odamlar kabi o'ylaydigan, gapiradigan, his-tuyg'ularni boshdan kechiradigan mavjudotlar sifatida tasvirlanadi.

Ular doimo ijtimoiy jamiyatning muammolarini hal qilishga yordam beradi yoki o'zlariga xos darslar beradi. Ertaklarida **to'ng'iz, quyon, bo'ri, qushlar** va boshqa hayvonlar tez-tez «insoniy» xususiyatlarga ega bo'lib, ular jamiyatdagi o'zgarishlar yoki ijtimoiy tartibni tasvirlashda qatnashadi. Hayvonlar ko'pincha insonlarga o'xshab **gapiradi, harakat qiladi** va **fikr yuritadi**. Ular ko'pincha biror muammoni hal qilishda yoki qahramonga yordam berishda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, o'zbek xalq ertaklaridagi **qoplon** yoki **bo'ri** kabi kuchli va shijoatli hayvonlar qahramonlarga yordamlashadi, yoki **quyon** va **maymun** kabi o'ynoqi va aqlli hayvonlar odamlarni o'rgatish va hikmatlar berish orqali ko'rsatiladi. Xalq folklorida hayvonlar o'z o'rnini ko'pincha mifologik belgilar sifatida topadi. Masalan, **bo'ri** ko'plab xalqlarda kuch va jur'atni, **qaldirg'och** — erkinlik va yozni, **mushuk** esa sir va sirli olamni ifodalaydi. Bu hayvonlarning tasvirlari ko'pincha qadimiy miflar va dostonlarda ham uchraydi. Hayvonlar, shuningdek, xalqning **axloqiy qadriyatlari** va **tabiatga bo'lgan munosabati** haqida tasavvur beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Hayvonlarning avtobiografiya janri yoki umumiy animalistik asarlar esa, asosan, ularning insonlarga o'xshash fikrlarini, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini ochib ko'rsatadi. Bu janr ko'pincha xalq adabiyotidagi hayvonlarning ijtimoiy va axloqiy simvolik rolini yanada chuqurlashtiradi. Bunday asarlar, masalan, **Aesopning ertaklari**, **Eski Yunon mifologiyasi**, Ezopning masallari yoki **Daniya xalq ertaklari** kabi klassik namunalar orqali adabiyotga kirib kelgan. Bu janrning shakllanishida xalq folklori muhim rol o'ynagan. Xalq og'zaki adabiyotidagi hayvonlar, o'zaro munosabatlar va hikmatlar, hayvonlarning insoniy fazilatlarini o'rganishga yordam beruvchi vositalar bo'lib, ular adabiyotda, ayniqsa, animalistika janrida kengaygan. Shuningdek, yozma adabiyotda, jumladan insoniyat badiiy tafakkurining eng ko'hna va o'lmas namunalaridan biri bo'lmish "Avesto"da jonivorlarga, ayniqsa qushlarga chuqur hurmat bilan qarashgan. Keyinroq jonivorlar adabiyotshunoslikda bir vositachi sifatida tasvirlanib, muallif o'z maqsadini amalga oshirish uchun hayvonlarni kerak bo'lganda ishlatadi, kerak bo'lmaganda ishlatmaydi.

Jahon adabiyotshunosligida hayvonlar obrazini uchratish mumkin bo'lgan asarlar juda ko'plab topiladi. Shuningdek, antik adabiyotda jonivorlarni tasvirlashning ma'lum bir qolipi, me'zoni shakllandi. Turli xalqlarga tegishli bo'lgan masallarda hayvonlar va jonivorlar asosiy obrazlarda tasvirlandi. Adabiyotda hayvonlar obrazini yaratish bo'yicha birinchilardan bo'lib folklorshunoslar qiziqdi. Hayvonlar haqidagi ertaklarni ilmiy tadqiq etish XIX asrda aka-uka Vilgelm va Yakob Grimmlar tomonidan boshlangan. XX asrda nemis

olimlari (Tiele.G., 1908), (Gunkel.X.,1921), (Kron.K.,1926) va fransuz olimlari (Kozre.K.,1889), (Ervi.L.,1893-1894), (Yansens.J.,1955), (Bornak.P.,1972), (Malandin.P.,1981), (Massron.C.,1988), (Paskal.J.N.,1992) hayvonlar haqidagi ertak va masallarni faol o'rgandilar. Yorqin ranglarda tasvirlangan jonivor va hayvonlar kitobxonlar, ayniqsa yosh kitobxonlar diqqatini o'ziga tortishi tabiiydir. Badiiy adabiyotda animalistik janr o'zining tarixi va yaxshi shakllangan an'anasiga ega. Xalq folklorlarida hayvonlar turli ramziy ma'nolarni anglatgan, ya'ni, Xitoy madaniyatida quyon oliyjanoblik va muloyimlik ramzi hisoblanadi, Rus madaniyatida bu qo'rqqoqlik va sharmandalikning ramzi. Xitoy va Yaponiya xalqlari orasida olov ramzi - Feniks, qadimgi Yunonistonda esa ajdarho timsolida tasvirlanadi. Shuningdek o'rta asrlarda otlar, hayvonlar haqida bir qancha yirik asarlar yozilgan va ular aqlli kuch qudratga ega jonzorlar sifatida talqin qilingan. J. Chosser "Kenterberi ertaklari"da hayvonlarni, otlarni turli ramziy obrazlarda ko'rsatadi (Cooper Helen.,1996.).

XVIII asrda ingliz adibi Jonatan Svift o'zining mashhur "Gulliverning sayohatlari" asarini yaratibgina qolmay animalistik adabiyotga ippik (ya'ni yunoncha "hippos– ot" so'zidan olingan) janrni olib kirdi. Adib zamondoshlari illatlarini fosh etar ekan, jirkanch yexularga aqlli va xushyor (oliyjanob) otlarni qarama-qarshi tarzda ifodalaydi. Rus tadqiqotchisi Yu.S.Orexova o'zining tadqiqotlari natijasida fransuz animalistika janrini ikki tipga ajratib ko'rsatadi.

1. XVIII asrgacha shakllangan antropologik uslub. Unda hayvonlar insonlarga moslashtiriladi.

2. Zoologik uslub bo'lib, hayvonlar xususiyatlarini realizmga tayangan holda ochib berishdir. Tadqiqotchining fikriga ko'ra bu uslubga Byuffon.J.L asos solgan hisoblanadi (Beknazarova I., 2023, 48).

Tadqiqotchining tasnifiga ko'ra aniqlangan ikki uslub o'rtasidagi farq shundaki zoologik uslubda ilmiylik ustunlik qilishi kuzatiladi. Ertaklarda, masallarda, dostonlarda hayvonlarning haqiqiy odatlarini, ularning haqiqiy munosabatlarini takrorlashga urinilmaydi, aksincha shartli hayvonlar niqoblari ostida odamdagi "g'ayriinsoniy" hayvoniylik ochiladi, hayvon niqobi yashirmaydi,

balki insoniy kamchiliklarni ochib beradi. Arslonning hukmronligi, tulkinining hukmi, quyon yoki chumchuqning ayyorligi shunchaki kuzatish natijasi emas. Shafqatsiz bo‘ri yirtqich feodal bilan, arslon davlat boshlig‘i bilan, monarxga yaqin yuzli ayyor tulki bilan, tinch hayvonlar, qushlar va hasharotlar jamiyatning oddiy huquqsiz a‘zolari bo‘lib ifodalanadi.

Ingliz adabiyotida animalistika janri XIX asr boshida namoyon bo‘ldi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki unga dastlab V.Rosko asos solgan. “Kapalaklar bazmi va chigirtkalar bayrami” (Roscoe W., 1807,), keyinchalik Ch.Dikkins, U.M.Tekkerey, J.Makdonald, L.Keroll, E.Lirr davom ettirishdi. Angliyada animalistika janrining gullab yashnashi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Mazkur davrni ingliz adabiyotshunosi H. Karpenter “oltin davr” deb atadi. **Charles Dikkins** va **George Eliot**, hayvonlar orqali jamiyatni, uning adolatsizligi va ijtimoiy tengsizliklarini tasvirlashga intilgan. **Eliotning “Mill on the Floss”** asaridagi ot obrazining tahlili bu davrning tipik misolidir, chunki hayvonlar ijtimoiy tizimdagi o‘rinlarini va insonlar bilan o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatishda ishlatilgan (Eliot G., 1860,). Dikkins, ko‘pincha, o‘z asarlarida hayvonlarni ijtimoiy haqiqat va adolatsizliklarni ko‘rsatishda ishlatgan. Uning **“Oliver Twist”** va **“Hard Times”** kabi asarlarida hayvonlar, insonlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish orqali, jamiyatdagi kambag‘allik, adolatsizlik va ishchi sinfnining azob-uqubatlarini aks ettiradi. Dikkinsning hayvonlar orqali beradigan tasvirlari, ijtimoiy harakatsizlikni, omon qolish uchun kurashni va tabiatning taqdirini o‘zida mujassam etadi. **Bundan tashqari**, ingliz-amerikalik yozuvchi, rassom, tabiatshunos **Ernest Tompson Seton** (1860–1946) - hayvonlar haqidagi adabiyotning ilg‘or vakillaridan biri sifatida tanilgan. Uning asarlari hayvonlarning tabiati, ularning jamiyatdagi o‘rni va inson bilan hayvonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Adib o‘zining mashhur “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari orqali **animalistika janriga** qo‘shgan hissasi katta bo‘lib, uning asarida **tabiat va hayvonlar tasviri** insoniyatning ichki dunyosini, axloqiy qiyinchiliklarini va ekologik masalalarini yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Seton-Tompson o‘z asarlarida hayvonlarning ruhiy dunyosini va ular bilan o‘zaro munosabatlarni ilgari surgan. U, ko‘plab boshqa yozuvchilardan farqli

o'laroq, hayvonlarni faqat tashqi va yovvoyi mavjudotlar sifatida emas, balki ichki dunyosi va his-tuyg'ulariga ega, o'zgaruvchan va murakkab organizmlar sifatida tasvirlagan. Seton-Tompson hayvonlarning empatiya va intellektual qobiliyatlarini ta'kidlab, ularning xatti-harakatlari va qarorlari, ba'zan insonlarnikiga o'xshash tarzda, axloqiy masalalar va hayotiy tanlovlarni o'z ichiga olishini ko'rsatgan.

XX asr oxiriga kelib animalistika janri yanada rivojlandi, mashhur bolalar yozuvchisi Michael Morpurgo o'zining nodir asarlari orqali animalistika janrining rivojiga o'z hissasini qo'shgan. Uning asarlari, asosan, yosh o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, hayvonlarning tasvirini juda ta'sirli va haqiqiy tarzda berishga intiladi. Adib hayvonlarning insonlarning hayotidagi o'rni va ularga nisbatan bo'lgan munosabatni ochib beradi. Morpurgo asarlari bu janrni zamonaviy adabiyotda yangi uslubda takomillashtirgan. Uning asarlarida hayvonlar nafaqat voqealarning guvohlaridan, balki faol ishtirokchilardan bo'ladi. Morpurgo hayvonlarni o'zining nutqi va xatti-harakatlari orqali juda yashirin hissiyotlarga ega bo'lgan jonivorlar sifatida tasvirlaydi. Morpurgo, hayvonlarni nafaqat insonlarning yordamchisi yoki do'sti sifatida ko'rsatibgina qolmay, balki ular orqali o'zaro hissiy aloqalarni, do'stlikni va tushunishni ham ta'riflaydi. Morpurgoning asosiy uslubi – hayvonlarning his-tuyg'ularini va fikrlarini o'quvchilarga birinchi shaxsda, ularning ko'zlari orqali yetkazishdir. Buning orqali u o'quvchiga hayvonning kutilmagan va ilgari tasavvur qilinmagan his-tuyg'ularini his qilish imkoniyatini yaratadi. Morpurgo bolalarni ona tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglagan holda ularni ona tabiatdan ilhomlantirish, ruhlantirish, o'z navbatida ularni atrof-muhit uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga undaydigan adibdir. Bu uning dehqonchilik xayriya faoliyatining asosiy qismidir va o'zi ta'kidlaganidek, bu kabi g'oyalar uning romanlarida tez-tez o'z ifodasini topgan. “Odatda kekxa odam (nima uchun bilmayman) oddiy, tabiatga yaqin, tabiat bilan uyg'unlikda yashaydi, tabiatdan olgandan ko'ra ko'proq narsani qaytarib beradi va uni himoya qilganday atrofdagi muhitni himoya qiladi. Bu menga oddiy tuyuladi”-deydi adib. (Ekolog, 2006 yil fevral). Yozuvchi, shuningdek, hayvonlarning harakatlarini va muomala usullarini juda real va aniq tarzda tasvirlashni afzal ko'radi. Bunday tasvirlar

o'quvchini hayvonlarning shaxsiyati va ruhiyatiga chuqurroq kirishga undaydi. Morpurgo asarida hayvonlar ko'pincha insonlar uchun o'zaro ishonch va yordamga muhtoj bo'lgan jonzorlar sifatida ko'rsatiladi. Ular ko'p holatlarda insonning yordamini talab qilmaydi, aksincha, hayvonlar o'zlari orqali insonlarga ko'plab muammolarni hal qilishda yordam beradi. Bu o'zaro aloqalar orqali Morpurgo insoniyatning do'stlik, mehr-muhabbat, hamdardlik kabi muhim qadriyatlarini bayon qiladi. Michael Morpurgo o'zining adabiy asarlari bilan animalistika janriga muhim hissa qo'shgan yozuvchidir. Uning asarlarida hayvonlar insonlarning muammolarini hal qilishda yordam beradigan ajoyib do'stlar, hamkorlar va xodimlar sifatida ko'rsatiladi. Morpurgo hayvonlarni insoniyatning ruhiy holatiga hamda o'zaro aloqalariga qanchalik ta'sir qilishini chuqur tasvirlab, o'quvchilarni hayvonlarga bo'lgan mehr-shafqat va ehtiyotkorlikka chaqiradi. Uning asarlari o'quvchilarga hayvonlarning o'ziga xos hissiyotlarini va ular bilan bo'lgan aloqalarni yangi nuqtai nazardan ko'rishga yordam beradi.

XULOSA

Ingliz adabiyotida animalistika janri, tarixiy va madaniy kontekstlar o'zgargan sari, turli shakllarda rivojlanib, adabiyotshunoslikda mustahkam o'rin tutdi. Yozuvchilar hayvonlarni nafaqat oddiy obrazlar sifatida, balki murakkab ijtimoiy, ekologik va axloqiy masalalarni o'rganish uchun muhim vositalar sifatida ishlatdilar. Bu janrning rivojlanishi insonning tabiatga bo'lgan mas'uliyatini, ekologik xabardorlikni va axloqiy dilemmalarni ko'rishning yangi usullarini taqdim etdi. Animalistika janrining adabiyotda chuqur ildiz otishi, kelajakda ham ekologik va ijtimoiy masalalarni yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda. Hayvonlarning tasviri nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritishda, balki inson psixologiyasi, uning ichki dunyosi va tabiat bilan bog'liq munosabatlarini o'rganishda ham muhim vosita sifatida ishlatildi. Bugungi kunda hayvonlar, adabiy asarlarda, nafaqat ularning biologik mavjudligi, balki o'ziga xos shaxsiyat va hissiyotlarga ega bo'lgan jonivorlar sifatida tasvirlanadi. Animalistika janrining rivojlanishi adabiyotdagi yangi va ilg'or yondoshuvlarni, shu jumladan,

ekologik adabiyot va hayvonlarning huquqlari kabi ijtimoiy masalalarni ko'tarishni davom ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashurova Sh.A. Inglizabon G'arb adabiyoti va O'zbek adabiyotida animalistika janri xususiyatlari // Avtoref. diss.fil.f.d. PhD. // O'zbekiston Jahon Tillari Universiteti. -2020. – B. 6-12.
2. Ashurova Sh.A. Animalistic genre in the literature of Canada // American journal of research. International scientific practical journal // . -2017. <http://www.journalofresearch.us26-39>
3. Ashurova Sh.A. Linguistic features of compound words in English and Uzbek languages // Journal of critical reviews // ISSN 2394-5125, 7-VOL T.,2020.
4. Beknazarova I.Y. Maykl Morpurgo asarlarida hayvonlar va insonlar o'rtasidagi do'stlik tuyg'usining tasvirlanishi // SamDU ilmiy axborotnomasi, T., 2023.-B 48-52. <https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.1.1913>
5. Beknazarova I.Y. Maykl Morpurgo ijodida tabiat mavzusi // “Ekonomika I sotsium” T., 2021. -№2(81)- B. 104-107. www.iupr.ru
6. Brown, J. *A sociological analysis of the novels of Charles Dickens*. // PhD thesis, London School of Economics and Political Science, - 1977.
7. Belogurova S.P. Animalizm kak kul'turologicheskii i khudojestvennyi fenomen v obshchestvennoi mysli rubeja XIX-XX vv // Avtoref. diss. kand. kul'turologii, - 2011.
8. Buss M. J. *Dictionary of Major Biblical Interpreters* // InterVarsity Press, - 2007. p. 499–503.
9. Cooper, H. *The Canterbury tales*, 2, Oxford guides to Chaucer, Oxford // Oxford University Press, - 1996.
10. Douglas H. Online Etymology Dictionary, -1858.
11. Karpenter H. “Sirli bog': Bolalar adabiyotining Oltin davri o'rganilishi.”// – London, -1932.

12. Khalilova E. O‘zbek va ingliz adabiyotida animalistika janri // Web of Scientist: International scientific research journal // ISSN:2776-0979, -2023.
13. Michael M. War Horse // London: Scholastic Press, - 2010. –p 176.
14. Orekhova Yu.S. Animalistik literatura Frantsii: traditsii i ikh transformatsiia v tvorchestve S.G. Kollet // Avtoref. diss. KFN. – Kaliningrad,- 2008.
15. New W.H. Short fiction’s fabulous realities // PhD. Carleton University, Department of English. -Ottawa, Canada, -1982.
16. Vigil K.M. Stories in Red and Write // Intellectuals and American Imagination, PhD (American Culture) // University of Michigan, - 2011.

REFERENCES

1. Ashurova, Sh.A. (2020) *Features of the Animalistic Genre in Western European Literature and Uzbek Literature*. Author’s abstract. diss.fil.f.d. PhD. Uzbekistan State World Languages University.
2. Ashurova, Sh.A. (2017). *Animalistic genre in the literature of Canada*. *American journal of research*. International scientific practical journal, 26-39. <http://www.journalofresearch.us26-39>
3. Ashurova, Sh.A. (2020). *Linguistic features of compound words in English and Uzbek languages*. *Journal of critical reviews*, Vol 7, ISSN 2394-5125.
4. Beknazarova, I.Y. (2023) *Depiction of the Feeling of Friendship Between Animals and Humans in the Works of Michael Morpurgo*. Sam.SU Scientific bulletin, 2(1), 48-52. <https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.1.1913>
5. Beknazarova, I.Y. (2021) *Nature Theme in the Works of Michael Morpurgo*. *Economy and Society*, 2(81), 104-107. www.iupr.ru
6. Brown, James. (1977) *A sociological analysis of the novels of Charles Dickens*. (Doctoral dissertation, London School of Economics and Political Science), 237.
7. **Belogurova, S.P.** (2011) *Animalism as a Cultural and Artistic Phenomenon in Public Thought at the Turn of the 19th-20th Centuries*. Doctoral dissertation, Moscow University, p. 18.

8. Buss, M. J. (2007) *Dictionary of Major Biblical Interpreters*, InterVarsity Press. pp. 499–503.
9. Cooper, Helen. (1996) *The Canterbury tales*, 2, Oxford guides to Chaucer, Oxford: Oxford University Press.
10. Douglas, H. (1958) Online Etymology Dictionary.
11. Carpenter, H. (1932) *Secret Garden: A Study of the Golden Age of Children's Literature*. London.
12. Khalilova, E. (2023) *Animalistic genre in English and Uzbek literature*. Web of Scientist: International scientific research journal, 4(4), 597-600, ISSN:2776-0979.
13. Morpurgo, M. (2010) *War Horse*. London: Scholastic Press, p. 176.
14. Orekhova, Yu.S. (2008) *Animalistic Literature of France: Traditions and Their Transformation in the Works of S.G. Collet*. Doctoral dissertation Kaliningrad.
15. New, W.H. (1982) *Short fiction's fabulous realities*. PhD. Carleton University, Department of English. Ottawa, Canada.
16. Vigil, K.M. (2011) *Stories in Red and Write: Intellectuals and American Imagination, 1880-1930*. PhD American Culture -University of Michigan.